

O'zbekiston Respublikasi  
Jizzax viloyati Zarbdor tuman  
davlat xizmatlari markazi  
tomonidan

2023 yil 08 noyabr  
№ 230465  
reestr raqami bilan

"ro'yxatga olingan"



"Tasdiqlayman"

Jizzax bosh nasos stansiyasi  
boshqarmasi boshlig'i

N.Uralov

2023 yil "08" noyabr

## Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasi to'g'risidagi NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmatini to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi yangi tahrirdagi "Mehnat kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi "Davlat muassasalari to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 302-sonli qarori, asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-101-sonli Farmoni hamda vazirlikning 2023 yil 23-iyundagi PF-101-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida"gi 91-sonli buyrug'iga muvofiq qayta ishlab chiqilgan hamda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

### I-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasining (keyingi o'rinlarda- **"boshqarma"** deb yuritiladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlarini hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. Boshqarma Sirdaryo va Jizzax viloyatlari uchun Sirdaryo daryosidan Janubiy Mirzacho'l magistral kanali orqali yirik nasos stansiyalar va mashina kanallar yordamida ekin maydonlariga suv yetkazib berishni amalga oshiradi.

Suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va tezkorlik bilan boshqarishni tashkil etish, shuningdek suvdan foydalanuvchilarga suvni yetkazib berish, suvni befoyda yo'qolishini kamaytirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, elektr va aloqa tarmoqlarini ishlatilishini ta'minlash, Nasos stansiyalari, gidrotexnik inshootlari va mashina kanallarini barqaror ishlash rejimini va ulardan foydalanishni tartibga solish, ularning samarali ishlashini ta'minlash, texnik soz holatda saqlash va ishchi holatini tiklash bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini tuzadigan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

3. Boshqarma 2021-yil 6-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5055-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatiga doir ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi 573-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga bo'ysunadi.

4. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining buyruqlari, farmoyishlari hamda hay'at qarorlari, shuningdek, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

## **II-bob. Boshqarma tashkil etish va qayta tashkil etish,**

5. Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan Suv xo'jaligi vazirligi buyrug'i bilan tashkil etiladi (qayta tashkil etiladi).

6. Boshqarma faoliyati nodavlat yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan yoki ular bilan birgalikda tuzilishi mumkin emas.

7. Boshqarma monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligi olingandan so'ng tashkil etiladi yoki qayta tashkil etiladi.

Monopoliyaga qarshi organ tomonidan boshqarmani tashkil etish (qayta tashkil etish) rad etilganda, boshqarma davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

8. Boshqarma Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda faoliyat sohasiga tegishli bo'lmagan uyushmalar (ittifoqlar) shaklidagi birlashmalar tuzishi va ularga a'zo bo'lishi mumkin.

Boshqarma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi hamda yuqori turuvchi tashkilotlarning aloqadorlik belgilari tushirilgan davlat tilida yozilgan muhr hamda blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida g'aznachilik shaxsiy hisob raqamlariga, banklarda hisob raqamlariga ega.

9. Boshqarmaning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida;

to'liq - **Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasi** davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi – (JBNSB);

b) rus tilida;

to'liq – **государственное учреждение Управление Джизакской головной насосной станции**, қисқартirilган номи – (УДГНС).

c) ingliz tilida;

to'liq - **Management Jizzakh head pump stansion**, qisqartirilgan (nomi – MJHPS).

10. Boshqarmaning yuridik manzili: Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Bo'ston shaxarchasi U.Xo'jabekov ko'chasi 1-uy.

11. Boshqarma tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Boshqarma apparati;
- 1-Jizzax nasos stansiyasi;
- 2-Jizzax nasos stansiyasi;
- 3-Jizzax nasos stansiyasi;
- 1-Yangiobod nasos stansiyasi;
- 2-Yangiobod nasos stansiyasi;
- 3-Yangiobod nasos stansiyasi;
- 4-Yangiobod nasos stansiyasi;
- 1-Jizzax mashina kanali uchastkasi (PK0+00dan PK317+00gacha);
- 3-Jizzax mashina kanali (PK141+00dan Jizzax suv omborigacha);
- Avtotransport xo'jaligi Jizzax viloyat hududi;
- Avtotransport xo'jaligi Sirdaryo viloyat hududi;

12. Boshqarmaning ustavi (nizomi)ga o'zgartirish va qo'shimchalar suv xo'jaligi vaziriining buyrug'iga ko'ra kiritiladi.

13. Boshqarma:

qayta tashkil etilganda yoki qayta tashkil etish yo'li bilan boshqa yuridik shaxsga qo'shib yuborilganda yoxud tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganda uning huquq va majburiyatlari yangi tashkil etilayotgan davlat muassasasiga o'tadi, mol-mulki hamda moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlari topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan yangi tashkil etilgan davlat muassasasiga topshiriladi;

bo'linganda esa, moliyaviy majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq taqsimlanadi, boshqa huquq va majburiyatlari yangi vazifalardan kelib chiqib belgilanadi.

Bunda soliq organlari tomonidan tugatilayotgan davlat muassasasining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish talab etilmaydi.

### **III-bob. Boshqarmaning vazifa va funksiyalari**

14. Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Nasos stansiyalari, gidrotexnik inshootlari va mashina kanallarini barqaror faoliyatini, elektr va aloqa tarmoqlari ishlatilishini ta'minlash;

Suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va tezkorlik bilan boshqarishni tashkil etish, shuningdek suvdan foydalanuvchilarga suvni yetkazib berish, suvni befoyda yo'qolishini kamaytirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

Suv iste'molchilari bo'yicha suv resurslaridan foydalanishda kanallar gidroposlarida innovatsion texnologiyalar asosida "Aqlli suv o'lchash" qurilmalarini o'rnatishni ta'minlab, suvning ishonchli hisobi va hisobotini yuritishni ta'minlash;

Suvni tejovchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha suv xo'jaligida yagona texnik siyosatni yuritish;

Foydalanilayotgan obyektlarni joriy va kapital ta'mirlash ishlarini yuqori sifatda bajarilishini tashkil etish;

15. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- boshqarma tasarrufida bo'lgan gidrotexnik inshootlarining ishlashini ta'minlash va ularni mustahkamligini oshirish uchun yo'naltirilgan maxsus laboratoriya yordamida amalda kuzatuv ishlarini olib boradi va natijalarini tahlil qiladi;

- gidrotexnik inshootlar atrofidagi erlardan samarali foydalanish maqsadida ularni atrofini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishni tashkil qiladi;

- tashkilotning ta'mirlash tadbirlarini moliyalashtirish va xarajatlar smetasini xar yil oxirida kelgusi yil uchun vazirlikka taqdim etadi;

- xo'jalik moliyaviy faoliyatini tahlili, byudjet mablag'larini to'g'ri va maqsadli ishlatishni ta'minlaydi hamda ishlatilayotgan mablag'lar bo'yicha vazirlikga ma'lumot taqdim etadi;

- hisobotlarni to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi va har chorak yakuni bilan vazirlikka taqdim etadi;

- boshqarma ehtiyojlari uchun materiallar, asbob-uskunalar, transport, mexanizm va boshqa material-texnik resurslarni vazirlik bilan kelishgan holda xarid qiladi va ta'mirlaydi;

- material-texnik resurslar, elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

- tasarrufidagi suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishning ishonchliligini ta'minlash va ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda Suv xo'jaligi vazirligiga takliflar kiritadi va ularni bajarilishini tashkil etadi;

- suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini va mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- Nasos stansiyalari, undan suv oluvchi kanallar, gidrotexnik inshootlarni barqaror ekspluatatsiya qilinishini, elektr va aloqa tarmoqlari ishini nazorat qiladi;

- Mavjud avtomatika va telemexanika uskunalarini uzluksiz ishlatilishini ta'minlaydi va yangilarini joriy etadi, Vazirlik tomonidan tasdiqlangan limit va suvdan foydalanish rejasiga asosan suv resurslaridan samarali foydalangan holda uzluksiz suv bilan ta'minlaydi;

- Nasos stansiyalari va gidrotexnik inshootlarini ish samarasini oshirish maqsadida to'g'ri va mukammal ekspluatatsiya qilishni tashkil etadi, suvni tabiiy va texnikaviy yuqolishini kamaytirish, uning hisobini va o'lchovini olib borish, ta'mirlash ishlarini sifatli tashkil etish, nasos stansiyalar, mashina kanallar va

gidrotexnik inshootlar atrofini ekologik toza holda asrash va muxofaza qilish zonalarini tashkil qiladi;

- pasportizatsiya ishlarini amalga oshiradi, gidrotexnik inshootlar kadastrini olib boradi va shu asosda ularning texnikaviy mavqeini ko'tarish to'g'risida takliflar kiritadi;

- Davlat dasturi asosida amalga oshirilayotgan nasos stansiyalarida rekonstruksiya qilish va qurish hamda tizimli ta'mirlash-tiklash tadbirlarini sifatli amalga oshirilishi ustidan nazorat ishlarini olib boradi va amalga oshirilayotgan loyiha samaradorligini tahlil qilib boradi;

- Boshqarma tassarrufidagi barcha yirik gidrotexnik inshootlarida, nasos stansiyalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni joriy qilish;

*Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasi tarkibidagi nasos stansiyalari va ulardagi gidrotexnika inshootlarining ishonchli ishlashini ta'minlash, yirik va alohida muhim obyektlarini muhofaza qilishni tashkil etish sohasida:*

- yirik va alohida muhim hisoblanadigan inshootlarni xavfsiz va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida tegishli tartibda favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining ilmiy texnik kengashida xavfsizlik deklaratsiyalarini tayyorlab himoya qiladi;

- nasos stansiyalar hamda gidrotexnik inshootlarining ish rejimini belgilaydi va unga amal qilinishini nazorat qiladi.

*Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasida ilm-fan yutuqlarini, va ilg'or tajribalarni, suv xo'jaligi va suvdan foydalanish tizimini boshqarishning innovatsion usullarini joriy qilish sohasida:*

- kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish, suv xo'jaligi sohasida yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, ta'lim va ilm-fanning faol integratsiyasini hisobga olgan holda, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishni muntazam ravishda, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;

- idoraviy mansub tashkilotlar bilan suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining o'quv tanishish hamda o'quv ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishda hamkorlik qiladi.

- Suvdan foydalanish bo'yicha boshqarma tassarrufidagi barcha gidrotexnik inshootlarda tizimli monitoring olib boradi, ma'lumotlarni davriy ravishda tahlil qiladi;

#### **IV-bob. Boshqarmaning huquqlari va majburiyatlari va javobgarligi**

16. Boshqarmaning markaziy apparati o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni vazirlik va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so'rash va olish;

o'z vakolatlari doirasiga kiradigan sohadagi muhim muammolarning yechimlari bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda idoralararo ishchi.guruhlar tashkil qilish;

o'z vakolatlari doirasidagi masalalar bo'yicha hududiy bo'linmalarga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;

boshqarma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 17. Boshqarma:

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Boshqarma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash;

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlariga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihalarining sifatini ta'minlash;

tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan qabul qilingan buyruqlarning tegishlicha bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

yuridik shaxs sifatida o'z nomidan shartnomalar tuzadi, sudlarda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etish;

boshqarma faoliyati uchun kundalik zarur bo'lgan materiallar, asbob-uskunalar va jihozlarni belgilangan tartibda amaldagi qonunchilik talablariga asosan xarid qilish;

o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan xujjatlar va ma'lumotlarni tegishli korxona, idora va tashkilotlardan belgilangan tartibda olish;

suv resurslaridan foydalanish to'g'risida o'zaro kelishish uchun taqdim etilgan qarorlar loyihalari yuzasidan xulosalar berish;

xo'jalik ichki gidromeliorativ tarmoqlarida shartnoma asosida mashina va mexanizmlar yordamida ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

cheklangan suvdan foydalanish bo'yicha tartibni buzganligi, gidrotexnik inshootlarga zarar yetkazganlik uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha tegishli huquq idoralariga o'z vakolatlari doirasida taqdimnomalar berish;

suv xo'jaligi ob'ektlarini tiklash, rekonstruksiya qilish hamda qurish bo'yicha manziliy dasturlarini ishlab chiqishda hamda qurilishi bitgan ob'ektlarni qabul qilishda qatnashish;

o'z tasarrufidagi yerlarda va suv havzalarida qishlok xo'jalik, meva-sabzavot, go'sht va boshqa mahsulotlarini yetishtirish hamda ishchi xizmatchilarga yordam tariqasida bozor narxlaridan arzon, zarur hollarda bepul berish;

Boshqarmaning barcha ob'ektlarida xodimlarning ish faoliyatida talofatsiz ishlash va ularni baxtsiz hodisalarga yo'l ko'ymaslik maqsadida texnika xavfsizligi qoidalariga to'la rioya qilib borishni ta'minlash;

jamoani texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha maxsus ko'rgazmali qurollar, yo'riqnomalar, plakat, texnik adabiyotlar, maxsus kiyim boshlar, shaxsiy himoya vositalari va boshqa kerakli jixozlar bilan doimiy ta'minlash va boshqa shart-sharoitlarni yaratish;

O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarni xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni va boshqarmadagi gidrotexnik inshootlar xavfsizligi deklaratsiyasi talablarini to'liq bajarish;

boshqarma tasarrufidagi ob'ektlarini talofatsiz ishlashini ta'minlash, favqulodda hodisalarning oldini olish, tabiiy va texnogen favqulodda hodisalar xavfi tug'ilganda ularni bartaraf qilish, aholi va xalq xo'jaligi ob'ektlarini talofatdan saqlash uchun boshqarmada fuqarolar muhofazasi ishlarini tashkil qilish, belgilangan asosiy tadbirlar rejalarni doimiy bajarilishini ta'minlash;

Boshqarmaga tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

#### 18. Boshqarmaning apparati:

Boshqarmaning apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda boshqarmaga yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Boshqarma faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash uchun boshqarma apparati va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini tashkil etish;

Boshqarma apparati, tarkibiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan o'zining faoliyati sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, ish va chora-tadbirlar rejalari, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarning amalga oshirilishini tashkil uchun mas'uldir.

Boshqarma apparati o'zining tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari boshqarmaning apparatida ko'rib chiqiladigan masalalar hamda normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilish uchun zarur bo'ladigan materiallar va ma'lumotlarni talab qilish va olish;

Boshqarmaning apparatida ko'rib chiqiladigan masalalarni aniqlashtirish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilot rahbarlari va vakillarini zarur hollarda belgilangan tartibda jalb qilish, ushbu maqsadlar uchun ekspert va ishchi guruhlar tuzish;

Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan kiritilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qayta tayyorlanishini talab qilish, zarur hollarda hujjatlarni qaytadan ishlab chiqishga qaytarish;

Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida yig'ilishlar o'tkazish;

Boshqarmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq va tezkor yechish talab etiladigan masalalar bo'yicha Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlariga belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini hamda ular tomonidan amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Suv

xo'jaligi vazirligi, Boshqarma va uning rahbariyati qaror va topshiriqlarining bajarilishini belgilangan tartibda o'rganish va tekshirish;

Boshqarmaning apparati qonun hujjatlariga ko'ra boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **V-bob. Boshqarma rahbariyatining asosiy funksional majburiyatlari.**

19. Boshqarma boshlig'ining asosiy funksional majburiyatlari quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish;

Boshqarma faoliyatining umumiy boshqaruvini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining buyruqlari, Suv xo'jaligi hay'at qarorlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

Boshqarma faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining buyruqlari, Suv xo'jaligi hay'at qarorlarilarning bajarilishini tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

Boshqarma hamda tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatlariga oid prognoz ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash uchun amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining hay'at yig'ilishlarida sohaga oid masalalarning ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

o'rinbosarining vakolatlarini belgilash, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlarning alohida qismlariga rahbarlik qilishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyati darajalarini belgilash;

Boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, Boshqarma o'rinbosari hamda tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar davriy ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazorat qilinishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining buyruq va farmoyishlari, Suv xo'jaligi hay'at qarorlari, havza boshqarmasining buyruqlarini bajarilishini tashkil qilish va monitoringini yuritishning amaliy tizimini yaratish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qarori va boshqa qonun hujjatlariga asosan, vazirlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarni amalga oshirish, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining

topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

Boshqarma xodimlarini muntazam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Boshqarma tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning mutaxassisligiga talablarni belgilash va samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, Boshqarmaning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarning bo'sh o'rinlariga tavsiya qilingan xodimlarning, shuningdek, Boshqarmaga ishga qabul qilinayotgan boshqa xodimlarning kasbiy mahorati va bilim darajasi, yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma'naviy fazilatlarini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rish;

Boshqarma faoliyatiga kiradigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, zarur bo'lgan hollarda boshqa idora va tashkilotlar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

Boshqarma o'rinbosari, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari faoliyatining samarali va natijaliligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini Boshqarma majlislarida eshitish, yakuniy natijalar bo'yicha zarur choralar ko'rish;

Boshqarma xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, o'zining o'rinbosarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga takliflar kiritish, ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

Boshqarma xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori bilan tasdiqlangan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-ahloq Namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan boshqarma xodimlarining kasb odobnomasi qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq, ekspeditsiya tizimida korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, huquq amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shartlarni bartaraf etish;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatlarining zamonaviy shakllarda tashkil etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

asosan davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni namunaviy nizomga muvofiq olib borish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o'rnatish, ularni shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda o'tkazish, shu jumladan, belgilangan muddatda va tartibda fuqarolar va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda qabul qilinishini yo'lga qo'yadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan arizalarning o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishida boshqarma rahbariyati va xodimlarining faol ishtirokini ta'minlash;

davlat sirlari va maxfiy axborotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilish;

shtat birliklarining belgilangan soni hamda O'zbekiston Respublikasi budget mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi asosida boshqarmaning shtat jadvalini tasdiqlashga kiritish;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va xodimlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari uchun majburiy bo'lgan buyruq va ko'rsatmalar berish hamda ularning bajarilishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

Suv xo'jaligi sohasida ishlab kelayotgan rahbar va mutaxassislarini ularning uzoq va samarali faoliyat ko'rsatganligi, alohida xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun belgilangan tartibda takliflar kiritishni ta'minlash va tavsiyalar berish.

Qonun hujjatlariga ko'ra Boshqarma boshlig'iga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

20. Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari boshqarmaning tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda havza boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimlaridan ozod qilinadilar.

Boshqarma boshlig'i o'rinbosarining asosiy funksional majburiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish;

Boshqarmada faoliyat yuritishda boshliq o'rinbosari Boshqarma boshlig'i topshiriqlarini bajarishga mas'uldir.

Boshqarma boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan hollarda tegishli buyruq asosida Boshqarma boshlig'i vazifasini bajarish;

davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan konsepsiya, kompleks dastur va kompleks chora-tadbirlarni davlat boshqaruv organining o'zi boshqaradigan yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilishini tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12-son qaroriga muvofiq, boshqarmaning o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'linmalari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarni amalga oshirish, tarkibiy bo'lim va uchastka rahbarlarining topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashi uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

Boshqarma boshlig'ining buyruq va topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma'naviy fazilatlarini kafolatlanganligini ta'minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xodimlar zaxirasini shakllantirish choralari ko'rish;

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va xodimlarining faoliyatining samarali va natijaliligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, boshqarma majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko'rish;

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to'g'risida boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Boshqarma xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 595-son qarori bilan tasdiqlangan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-ahloq Namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan boshqarma xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish, o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta'minlash;

Boshqarmada O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunining talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shartlarni aniqlash hamda tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonun hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi va sifatini, ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish bo'yicha Boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

davlat sirlari va maxfiy ma'lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilish;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor va istiqbolli loyihalar va dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlash;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish;

suv xo'jaligi sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish va amalga oshirishda ishtirok etish, ularni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish maqsadida investitsiya dasturlariga kiritish uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ko'rib chiqish, ularni shakllantirishga va monitoringini yuritishni ta'minlashga rahbarlik qilish.

## **2-§. Boshqarma rahbarlarining mas'uliyati.**

21. Boshqarma boshlig'i quyidagilar uchun shaxsan mas'uldir;  
Boshqarmada yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi;  
mazkur Nizomning 14-bandida ko'rsatilgan funksional majburiyatlarning sifatli bajarilishi.

22. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari quyidagilar uchun shaxsan mas'uldirlar;  
Boshqarma markaziy apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi;

Boshqarma mas'ul bo'lgan va mazkur Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan o'zlari boshqaradigan sohalar;

23. Boshqarma markaziy apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari quyidagilar uchun mas'uldirlar;

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlariga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi;

Boshqarma markaziy apparati mas'ul bo'lgan mazkur Nizomning 12-bandida ko'rsatilgan sohalar;

## **3-§. -bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish.**

24. Boshqarmani O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirining 1-o'rinbosari tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshqaradi.

25. Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari boshqarma boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimlaridan ozod qilinadilar.

26. Boshqarma boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan hollarda uning vakolatlarini bajarish boshliqning o'rinbosariga majburiyatlarni taqsimlash asosida amalga oshiriladi.

27. Boshqarma tuzilmasidagi hududiy bo'limlari boshliqlarini Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimlariga tayinlanadilar va lavozimlaridan ozod qilinadilar.

#### **4-§. Boshqarma apparati, tizim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi**

28. Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan hamkorlik qilishini apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari amalga oshiradilar.

29. Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar Boshqarma faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik qiladilar:

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar xodimlariga topshiriqlarni yetkazadilar va ularning bajarilishini nazorat qiladilar;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatiga bevosita taalluqli masalalar bo'yicha boshqarmaning tizim tashkilotlari rasmiy so'rovnomalar jo'natadilar va ularning bajarilishi nazorat qiladilar;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar ish rejalarini tahlil qiladilar, ular faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish choralarini ko'radilar;

Boshqarma apparati, hududiy bo'linmalari amaliy faoliyatini tekshiradilar, o'rganib chiqadilar va umumlashtiradilar, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

Boshqarma apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlaridan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqadilar;

30. Tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar boshqarmaning apparati bilan o'zaro hamkorlik qiladilar, shu jumladan:

Boshqarma rahbariyati topshiriqlarining bajarilishi to'g'risida axborot beradilar;

Boshqarma apparatiga suv xo'jaligi sohasidagi qonun hujjatlarini bajarish bo'yicha ish faoliyati natijalari to'g'risida ma'lumot taqdim etadilar;

ularning faoliyatini tekshirish va o'rganish davomida aniqlangan ish faoliyatidagi kamchiliklar va qoida buzilishlarini bartaraf etish natijalari to'g'risida axborot beradilar;

o'zining faoliyati natijalari to'g'risida belgilangan tartibda va muddatlarda Boshqarmaning apparatiga hisobot beradilar;

Boshqarmaning apparatiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini, shu jumladan, aholining dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan takliflarni taqdim etadilar;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan o'zaro hamkorlik qilish natijalari to'g'risida axborot beradilar;

31. Boshqarma apparati, tizim tashkilotlarining o'zaro munosabatlari jarayonida vujudga kelgan kelishmovchiliklar Boshqarma boshlig'ining topshirig'iga ko'ra, o'rinbosari tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar kelishmovchiliklar ko'rib chiqilgandan so'ng ham bartaraf etilmagan bo'lsa, ular bo'yicha qaror bevosita Boshqarma boshlig'i tomonidan qabul qilinadi.

#### **5-§. Boshqarmaning mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi.**

32. Boshqarma o'zining vazifa va funksiyalarini bajarishda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

33. Boshqarmaning apparati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari o'zlarining vakolatlari doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladilar.

Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan o'zaro uzviy hamkorlik qiladilar.

34. Boshqarma faoliyati O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **VI bob. Boshqarma mulki.**

35. Quyidagilar boshqarmaning mulki hisoblanadi:

Vazirlik tomonidan **boshqarmaga** operativ boshqaruv huquqi bilan biriktirilgan mulk;

byudjetdan tashqari mablag'lari hamda o'z mablag'lari;

qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirilgan mulklar.

Agar ta'sis hujjatlariga muvofiq bo'limga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan bo'lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk bo'limning mustaqil tasarrufiga o'tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

36. Boshqarmaning mulki xodimlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

37. Boshqarmaning mulki quyidagi hollarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda vazirlik bilan kelishgan holda tasarruf etiladi:

asosiy vositalarni sotish, hisobdan chiqarish (binolari va inshootlari, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlaridan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy bo'linmalari, qurilish sohasidagi loyihalashtirish tashkilotlari, maxsus litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining xulosasiga muvofiq yaroqsiz deb topilgan hamda vakolatli

organlar tomonidan buzish to'g'risida qaror qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlarini buzish;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki uning hududiy bo'linmalari roziligi bilan avtotransport vositalarini xarid qilish, bino va inshootlarni sotib olish va/yoki qurish;

mulkni davlat muassasasi faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

Bino va inshootlar (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar), shuningdek, davlat muassasasiga tegishli aksiyalar (ulushlar) Davaktiv agentligi tomonidan sotiladi.

Bunda bino va inshootlarni (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlarni), shuningdek, bo'linga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotishdan tushgan mablag'lar ularni sotib olish manbalaridan qat'i nazar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi.

38. Boshqarma balansidagi bino va inshootlari (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlari), avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini sotish va ijaraga berish, shuningdek, ularga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda «E-auksion» elektron savdo platformasida auksion savdolari orqali amalga oshiriladi.

39. Boshqarmaning asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obyektlarini sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi:

belgilangan xizmat muddatining tamom bo'lishi (to'liq yaroqsiz deb topilishi);

ularning jismoniy eskirishi, avariylar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;

ma'naviy eskirishi;

yangi binolari qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shab qolishi;

foydalanish zarurati bo'lmaganda.

40. Boshqarmaning operativ boshqaruvida bo'lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan daromadlar, shuningdek, davlat muassasasining shartnoma bo'yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulki ham uning operativ boshqaruviga o'tadi.

41. Boshqarmaning mol-mulki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan garovga qo'yiladi. Bunda qonunchilik hujjatlarida belgilangan xususiylashtirilmaydigan davlat mulklari, shuningdek, xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirilayotgan davlat muassasalari mulklarini garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

42. Boshqarma o'z balansidagi ko'chmas mulkni bir tashkilotdan boshqa biriga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazish to'g'risidagi qarorni Davaktiv agentligi bilan kelishuvga ko'ra qabul qiladi.

43. Boshqarmaning ko'chmas mulk obyekti va bo'sh yer uchastkalari negizida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari to'g'risidagi

ma'lumotlar davlat sherigi tomonidan tegishli bitim tuzilgandan so'ng o'n kun muddatda «Davlat mulki» axborot tizimiga kiritiladi.

44. Boshqarmaning ko'chmas mulki negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritilishiga oid kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandumlar) bo'yicha majburiy tartibda Davaktiv agentligining xulosasi olinadi.

45. Shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan Boshqarma xodimlari soniga davlat ko'chmas mulki obyektlarining ishchi xonalari maydoni hisob ko'rsatkichlari mos kelishi lozim.

46. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning hududiy organlari bo'limning operativ boshqaruv huquqidagi ko'chmas mulkni xatlashi va majburiy realizatsiya qilishi mumkin emas, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **VII bob. Boshqarma faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlari**

47. Boshqarma va uning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ishchi indikatorlari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi.

48. Boshqarma va uning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatining samaradorligi, natijadorligini baholash natijalari asosida:

- Boshqarma va uning tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbariyati va xodimlariga nisbatan rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va Boshqarma faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko'riladi.

- Boshqarma va tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbar-xodimlariga nisbatan rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va Boshqarma faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko'riladi.

## **VIII bob. Boshqarma faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi**

49. Boshqarma fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir huquqlarini amalga oshirishlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda o'z faoliyatining ochiqligi, oshkoraligi va hisobdorligini ta'minlashi shart.

50. Boshqarma o'z rasmiy veb-saytida o'zining nomi, faoliyat turi, funktsiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtiradi hamda ularning doimiy ravishda yangilab borilishini ta'minlaydi.

Ochiq ma'lumotlar portalida foydalanuvchilar uchun qulay formatlarda ko'rish imkoniyatini yaratgan holda muassasaning yuqori turuvchi tashkiloti, ko'chmas mulk obyektlari, qurilishi tugallanmagan obyektlari va avtotransport vositalari, rejalashtirilgan va amalga oshirilgan xarajatlar tarkibi haqidagi va

boshqa ma'lumotlarni (tijorat siri mavjud yoki cheklangan holda tarqatiladigan ma'lumotlar bundan mustasno) e'lon qilib boradi.

Davaktiv agentligining «property.davaktiv.uz» axborot tizimiga har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi 25-sanasiga, yil yakunlari bo'yicha esa keyingi moliya yilining 25 fevraliga qadar hisob obyektlarining joriy holati, shuningdek, moliyaviy ko'rsatkichlari, jumladan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib boradi.

### **IX-bob. Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti, xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish**

51. Davlat byudjeti mablag'lari, Boshqarma va uning hududiy bo'limlarining xo'jalik faoliyati xisobidan olingan foydalari, shuningdek qonunda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar Boshqarma va uning hududiy bo'limlarining moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Bunda ish haqi, mukofotlar va oylik ish haqi miqdoridagi moddiy yordam to'lovlari, shuningdek, boshqa xarajatlar byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

52. Boshqarma xodimlarining lavozim ish haqiga xodimlarning uzoq yillik xizmatlari asosida har oylik ustama va moddiy rag'batlantirish to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **X-bob. Boshqarmaning faoliyatini nazorat qilish**

53. Boshqarma rahbariyati boshqarma faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baxolash mezonlari hamda ishchi indikatorlari ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga shaxsan javob beradi hamda hisobot beradi.

54. Boshqarma qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda har yili hisobot davri tugagach, boshqarmaga va boshqa vakolatli organlarga faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

55. Boshqarma byudjet to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan nazorat qilinadi.

56. Boshqarma boshlig'i xodimlar tomonidan ularning vazifalari samarali bajarilishi uchun faoliyati ustidan muntazam ravishda monitoring olib boradi va samaradorligiga xolisona baho beradi.

57. Boshqarma faoliyatining monitoringi va baholash natijalariga ko'ra boshqarmaning alohida namuna ko'rsatgan mansabdor shaxslari va xodimlariga

nisbatan ularni rag'batlantirish yoki jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yganligi uchun javobgarlikka tortish, egallab turgan lavozimidan ozod etish kabi choralar ko'riladi.

### **XI-bob. Boshqarmani tugatish**

58. **Boshqarma** quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

sud davlat muassasasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

oxirgi olti oy mobaynida faoliyat ko'rsatmayotgan bo'lsa;  
qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

59. Agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, muassis yoki davlat muassasasini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan organ davlat muassasasini tugatish hamda tugatuvchini (vakilni) tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Boshqarma faoliyati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda uni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin olti oydan oshmagan muddatda tugatilishi zarur.

60. Boshqarma o'z majburiyatlarini ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga bajaradi.

61. Tugatilayotgan Boshqarmaning mablag'lari kreditorlar talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, kreditorlar o'z talablarining qolgan qismini ushbu davlat muassasasining muassisi hisobidan qondirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

62. Tugatilishi belgilangan Boshqarmaning mol-mulkleri kreditorlar talablari qondirilgandan keyin topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan muassisga o'tkaziladi.

63. Davlat muassasasini tugatish ishlarining sifatli, to'liq va o'z muddatida amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat ushbu davlat muassasasining muassisiga yuklanadi.

64. Boshqarma tugatilganda, davlat xizmatlari markazlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan chiqariladi.

### **Yakunlovchi qoida**

65. Ushbu Nizom qoidalari qo'llanishi bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

66. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

67. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan ayrim turdagi davlat muassasalarining alohida o'ziga xos xususiyatlari va huquqlari belgilanishi mumkin.